

ISSN 2181-7812

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
**AXBOROTNOMASI**

**ВЕСТНИК**  
ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ



Co-funded by the  
Erasmus+ Programme  
of the European Union



**"BO'LAJAK SHIFOKORNING  
MULOQOT KOMPETENSIYASI"**  
I - xalqaro o'quv-uslubiy  
konferensiyaga bag'ishlangan  
**MAXSUS SON**

**2024**

TOSHKENT

ISSN 2181-7812



9 772181 781009

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ  
ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ

2024

2011 йилдан чиқа бошлаган

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
**AXBOROTNOMASI**



**В Е С Т Н И К**

ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

**СПЕЦВЫПУСК**

**Материалы I международной учебно-методической конференции  
«КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ  
БУДУЩЕГО ВРАЧА»**

Тошкент

СОДЕРЖАНИЕ	
<b>НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ</b>	
Абдуллаева Р.М. ЗНАЧЕНИЕ ЯЗЫКОВЫХ ДИСЦИПЛИН В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ЯЗЫКОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО ВРАЧА	8
Аладова Л.Ю., Шукуров Б.В., Бегматов Б.Х., Раимкулова Д.Ф., Бабаджанова Ф.У. ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СРЕДИ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКИХ ИНСТИТУТОВ	15
Babaraximova S. B. "PSIXIATRIYA" FANINI O'QITISHDA DEONTOLOGIYA VA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR MASALALARI	17
Voxidova N. X., Bayratova A. PEDAGOGIK MULOQOT TA'LIM SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI OMIL EKANLIGI	20
Kaxorova M. A. THE PECULIARITY OF THE EXTENSIVE STUDY OF WORD FORMATION METHODS IN MEDICAL TERMINOLOGY	22
Мусаева Д.М. МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО И ОПЕРАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ	26
Садывакасов А.У. КОУЧИНГОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ВУЗЕ	30
Саттаров Т.Ф. ОПТИМИЗАЦИЯ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ВНЕАУДИТОРНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ	33
Sultonova K. B. PEDAGOGIK JARAYONDA PSIXOLOGIK MIKROIQLIMNI OPTIMALLASHTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUVLAR	37
Тошходжаева П.Б., Хазратова Г. Ш. ЧЕТ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА МАДАНИЯТЛАРАРО МУЛОҚОТНИ СИНГДИРИШГА ОИД МЕТОДЛАР, ЁНДАШУВЛАР	39
Sharipova F. K. PSIXIATRIYA VA TIBBIY PSIXOLOGIYA KAFEDRASIDA O'QUV JARAYONIDA WEB-QUEST-INTERNET LOYIHALARINING INNOVATSION USULINI QO'LLASH	43
<b>ОБЗОРЫ</b>	
Khudaykulova G.K., Eraliyev U.E., Djurayeva N.K. Ibragimov D.A. THE EFFECTIVENESS OF PSYCHOLOGICAL SUPPORT IN THE REHABILITATION OF PATIENTS WITH CORONAVIRUS	46
Шайхова М.И., Ганиева Д.К. ПАТРОНАЖ ХОДИМЛАРИ МУЛОҚОТ КЎНИКМАЛАРИНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ЎРГАНИШ (АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ)	51
<b>ГИГИЕНА, САНИТАРИЯ И ЭПИДЕМИОЛОГИЯ</b>	
Abdulxayeva M.B. TA'LIMDA DEONTOLOGIYA	58
Abdurashitova Sh.A., Muyassarova M.M. COMMUNICATION IN MARKETING RESEARCH	60
Dadaboyeva G.A. HEALTHCARE SYSTEM AT INTERNATIONAL LEVEL (ISRAEL)	62
Muyassarova M.M., Abdurashitova S.A., Boltaboev S.E. THE MAIN FACTORS RELATED TO THE RELATIONSHIP BETWEEN A DOCTOR AND A PATIENT THAT AFFECT THE STATE OF WOMEN'S REPRODUCTIVE HEALTH	68
Назарова С.К. ВНЕДРЕНИЕ ПАЦИЕНТОРИЕНТИРОВАННОЙ МОДЕЛИ ОБСЛУЖИВАНИЯ БОЛЬНЫХ В ПМСП	71
Nematov A.A., Abdiyatov A.A. COVID-19 TASHXISI BILAN YOTQIZILGAN BEMORLARDAGI DOIMIY SIMPTOMLARNI O'RGANISHDA SHIFOKORLAR MULOQOT QOBILYATINING AHAMIYATI	74
Турсынбекова А., Кашаганова К., Батыкова А., Даулетханова А. Студенты П22-003: КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ В ПРОФЕССИОНАЛЬНО ЛИЧНОСТНОМ СТАНОВЛЕНИИ СТУДЕНТОВ МЕДИКОВ	78
Уразалиева И.Р., Турсунова С.Б. НОГИРОН БОЛАЛАРГА ТИББИЙ-ИЖТИМОЙ ЁРДАМ КЎРСАТИШДА ЎРТА ТИББИЁТ ХОДИМЛАРИНИНГ ЎРНИ	78
Khudaykulova G.K., Karimbayev Sh. D. INTERPERSONAL COMMUNICATION SKILLS IN MEDICAL PRACTICE ARE THE KEY TO A FAVORABLE ENVIRONMENT FOR PATIENTS	84
Эшбаева К.У., Мухассарова М.М., Абдурашитова Ш.А., Ибрагимов Д.А. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НЕВЕРБАЛЬНОЙ КОММУНИКАЦИИ В СЕСТРИНСКОЙ ПРАКТИКЕ	88
Эшбаева К.У., Умаров М.М., Нейматова Д.М., Рахмонова Г.И., Эшбаева Н.У. КОММУНИКАТИВНЫЕ НАВЫКИ ВРАЧА И МЕДСЕСТРЫ	91

ПОМОЩЬ ПРАКТИЧЕСКОМУ ВРАЧУ	
<i>Abdurakhimova Z. K., Zubaydullaeva M.T., Karimova M.T. PRE- AND POST-TEST COUNSELING FOR HIV: MEDICAL AND ETHICAL CONSIDERATIONS</i>	96
<i>Махмудова У.Р., Нуриллаева Н.М., Кенжаев С.Р. СВЯЗЬ КОММУНИКАТИВНОГО ФОРМАТА С ЭФФЕКТИВНОСТЬЮ ИНФОРМИРОВАНИЯ О РИСКАХ СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ</i>	98
<i>Нуритдинова Н.Б., Ярмухамедова Д.З., Шоалимова З.М. ПРОБЛЕМЫ КОММУНИКАЦИИ ВРАЧА И ПАЦИЕНТА</i>	103
<i>Рахматуллаева Ш.Б., Муминова М.Т., Эргашев Б.М., Садиқов Х-М.А., Фахриддинова Д.М. РОЛЬ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВРАЧА-ИНФЕКЦИОНИСТА: ЭФФЕКТИВНОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ С ПАЦИЕНТАМИ И КОЛЛЕГАМИ</i>	108
Трибуна молодых	
<i>Abdurashitova Sh.A.<sup>1</sup>, Abduraimova L.L.<sup>2</sup>, Latipova S.A.<sup>3</sup> THE IMPORTANCE OF ETHICS IN THE FORMATION OF A HEALTHY LIFESTYLE AMONG STUDENTS</i>	112
<i>Абзалова Н.А. (руководитель), Гамлетова М.И. ПЕРСПЕКТИВЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ В МЕДИЦИНСКОЙ КОММУНИКАЦИИ</i>	114
<i>Aymuratova G.R., Pardayeva S.Sh. ALOHIDA IJTIMOYI AHAMIYATGA EGA KASALLIKLARDA MULOQOT QOBILIYATINI OSHIRISH</i>	117
<i>Asomova N.M. TA'LIM JARAYONIDA MULOQOT KO'NIKMALARINING TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI</i>	119
<i>Ilyasova M.M., Gullola A.A. TA'LIM JARAYONIDA MULOQOT KO'NIKMALARINING TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI</i>	124
<i>Maxkamov S.I. THE ROLE OF TELEMEDICINE FOR THE DEVELOPMENT OF PUBLIC HEALTH (REVIEW)</i>	124
<i>Saloni S.M., Tulyaganova D.S. (supervisor) PECULIARITIES OF COMMUNICATION BETWEEN MEDICAL STAFF AND PARENTS OF CHILDREN WITH HEART FAILURE.</i>	127
ТЕЗИСЫ	
<i>Abdurashitova Sh.A.<sup>1</sup>, Abduraimova L.L.<sup>2</sup>, Latipova S.A.<sup>3</sup> THE IMPORTANCE OF ETHICS IN THE FORMATION OF A HEALTHY LIFESTYLE AMONG STUDENTS</i>	133
<i>Асадов А.М., Гарин Д.К., Асадов М.М. УЛУЧШЕНИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ ПРИ ОТДЕЛЬНЫХ СОЦИАЛЬНО-ЗНАЧИМЫХ ЗАБОЛЕВАНИЯХ</i>	134
<i>Асадов А.М., Гарин Д.К., Асадов М.М. УЛУЧШЕНИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ ПРИ ОТДЕЛЬНЫХ СОЦИАЛЬНО-ЗНАЧИМЫХ ЗАБОЛЕВАНИЯХ</i>	135
<i>Асадова Г.А. КОММУНИКАТИВНЫЕ НАВЫКИ КАК НЕОТЪЕМЛЕМАЯ ЧАСТЬ ПРОФЕССИОНАЛИЗМА СОВРЕМЕННОГО ВРАЧА</i>	135
<i>Akhmadjonov U.A., Qosimova Z.M. THE IMPACT OF INTERPERSONAL RELATIONS ON THE TEACHING OF OTORINOLARINGOLOGY</i>	136
<i>Akhmatov B.Kh., Palvanova M.S. PRINCIPLES OF COMMUNICATION WITH PATIENTS WITH PSYCHOSIS AFTER AN EMERGENCY CAESAREAN SECTION</i>	136
<i>Ashiraliyev I.I., Umarova M.P. PRINCIPLES OF SPEECH EXAMINATION AND CEREBELLAR COGNITIVE AFFECTIVE SYNDROME IN CEREBELLAR ATAXIC PATIENTS</i>	137
<i>Ашуров С.Р. ВЛИЯНИЕ КОММУНИКАЦИИ НА ОБУЧЕНИЕ: СТРАТЕГИИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ В МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ</i>	137
<i>Wahi N. - Student (4 course) THE ROLE OF PATIENT-CENTERED CARE IN IMPROVING TREATMENT PLAN ADHERENCE AND HEALTH OUTCOMES</i>	138
<i>Джалилова Г.А., Расулова Н.Ф., Мухамедова Н.С. ИННОВАЦИЯ - ТАЪЛИМ ТАРАҚҚИЁТИ ЙЎЛИНИ БОШ МЕЗОНИ</i>	139
<i>Dilmurodova O.B TIBBIYOT DEONTOLOGIYASI VA UNING AHAMIYATI</i>	139
<i>Ибрагимов Т.Т. АКТУАЛЬНОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ ВРАЧЕЙ</i>	140
<i>Ilyasova M.M. BO'LAJAK SHIFOKORLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHGA PEDAGOGIK YONDASHUV</i>	140
<i>Искандарова Ш.Т., Шорустамова М.М. ОРГАНИЗАЦИЯ РАБОТЫ ПРОФИЛАКТИКИ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ ДЕТЕЙ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ</i>	141
<i>Искандарова Ш.Т., Аминова А.А. МАХСУС МАКТАБЛАРДАГИ ИМКОНИАТИ ЧЕКЛАНГАН БОЛАЛАРДА ЭКОЛОГИК ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ МАСЛАЛАРИ</i>	142

**TA'LIM JARAYONIDA MULOQOT KO'NIKALARINING TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI**

Ilyasova M.M. - Ilmiy rahbar  
Gullola A.A. - Izlanuvchi

**ВЛИЯНИЕ КОММУНИКАЦИОННЫХ НАВЫКОВ НА КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ**

Ильясова М.М. - научный руководитель  
Гуллолы А.А. - исследователь

**INFLUENCE OF COMMUNICATION SKILLS ON THE QUALITY OF EDUCATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS**

Ilyasova M.M. - Scientific supervisor  
Gullola A.A. - researcher

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi*

*В данной статье мы остановимся на специфике педагогического общения, и в отличие от других форм межличностного общения, специфика общения учителя и взаимодействия с учащимися способствует развитию учащихся. В статье говорится о внедрении современных методов организации культуры общения педагогов и студентов в процессе обучения. В частности, в этом процессе выделяются важные черты коммуникативной этики.*

**Ключевые слова:** общение, педагогическое общение, современные методы общения, этика общения, воспитание, коммуникативные способности, образовательный процесс

*In this article, we will focus on the specifics of pedagogical communication, and unlike other forms of interpersonal communication, the specificity of the teacher's communication and interaction with students contributes to student development. The article talks about the implementation of modern methods of organizing the culture of communication between pedagogues and students in the learning process. In particular, the important features of communicative ethics are highlighted in this process.*

**Key words:** Communication, pedagogical communication, modern communication methods, communication ethics, education, communicative ability, educational process.

**Kirish.** Insonning yashashi, rivojlanishi, shaxs bo'lib shakllanishi uning jamiyat bilan bo'lgan aloqasini muloqotsiz tasavvur qilish juda qiyin. Muloqot – bu insonlarning hamkorlikdagi faoliyatiga bo'lgan ehtiyoji bo'lib, ularning o'zaro munosabatlari, ta'sirlari, ma'lumot hamda axborot almashishiga doir ularning birgalikdagi faoliyati hisoblanadi. Shaxs muloqotini shakllantirishda uning yoshi, jinsi, kasbi, dunyoqarashini hisobga olgan holda ish olib borish lozim. Zamonaviy ta'lim qattiq nazorat va adolatli boshqaruvni talab qiladi. Ta'limda nazorat va boshqaruvning uyg'unligini ta'minlash sifat va samaradorlikning kalitidir. Ta'limda boshqaruv samaradorligi va sifatining o'zgarishi to'g'ri tanlangan boshqaruv modeli va uni uzluksiz ta'lim tizimida izchil qo'llash amaliyoti bilan bog'liq. Zero, "Islohotlar muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyoning rivojlangan, zamonaviy davlatlari qatoridan munosib o'rin egallashi ilm-fan va ta'lim rivoji, bu borada jahon miqyosida raqobatlasha olishimiz bilan uzviy bog'liqdir. Shuningdek, u ta'limning ijtimoiy taraqqiyotga ta'sirini ko'rsatadi.

**Asosiy qism:** Insonning rivojlanishini, ijtimoiylashishini, individni shaxs bo'lib shakllanishini, uning jamiyat bilan bo'lgan aloqasini muloqotsiz aslo tasavvur etib bo'lmaydi. Muloqot ham o'ziga xos extiyoj. Polshalik psixolog E.Melibruda aytganidek, shaxslararo munosabatlar biz uchun havodek ahamiyatga egadir. Go'daklik va o'smirlik davrlarida muloqot yetakchi faoliyatga, ya'ni yangi psixologik xususiyatlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi faoliyat sifatida gavdalanadi. Har qanday jamiyatning taraqqiyoti ta'lim-tarbiya va peda-

goglarning amalga oshiradigan muloqot usuliga bevosita bog'liq. [4: 256]


Yurtimiz ma'naviy va madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi inson va uning manfaatlari, xavfsizligi va farovonligini ta'minlash hamda barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilganligidir. Ma'lumki, uzluksiz ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalar, yangi qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ko'rsatilgan muammolarni hal etish o'qituvchi pedagog tomonidan hal qilinadi. Bu albat-ta muloqot orqali hal etiladi. Buning uchun o'qituvchi pedagogik mahorat, pedagogik texnika, pedagogik madaniyat kabi qirralarini mukammal o'zlashtirishi bilan birga pedagogik muloqot va uning zamonaviy usullaridan to'liq xabardor bo'lishi talab etiladi. Shuni unutmash kerakki, pedagogik faollik, pedagogik ijodkorlik, pedagogik natijaviylik pedagogik muloqot bilan chambarchas bog'langan. Shu bois pedagogik muloqot usullari zamon talablari, ta'lim-tarbiya ehtiyojlari pedagogik vazifa xususiyatlariga qarab takomillashtirib, mukammallashtirib boriladi.

Muloqot madaniyatining tarbiyalovchi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy sifatleri bilan belgilanishini ta'kidlab o'tish lozim. Pedagogik muloqot madaniyatining har jihatdan to'g'ri tanlangan, o'qituvchining ma'naviy saviyasi, betakror xususiyatlariga muvofiq keluvchi uslubi quyidagi vazifalar majmuini hal qilishga yordam beradi: birinchidan, muloqotda har bir o'quvchiga alohida e'tibor va dilkashlik sinf jamoasi bilan umumiy muloqot jarayonini soddalashtiradi, o'qituvchining erkin pedagogik faoliyati uchun zamin tayyorlaydi, ziddiyatli vaziyatlarni oson hal

qiladi; ikkinchidan, har bir o'quvchi bilan o'zaro munosabatni erkin muloqot asosida tashkil qilish, ularning yosh xususiyatlariga monand pedagogik va psixologik muloqot uslublarini tanlash, uning ruhiyatini bilishga, ichki dunyosiga "kirib borish"ga yo'l ochadi; uchinchidan, pedagogik muloqotda o'qituvchining ma'naviy-axloqiy normalari muvaffaqiyatlar kaliti bo'lib, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiradi, muloqotning barcha bosqichlarida o'qituvchining o'z faoliyatidan qoniqish hissini va xotirjamligini ta'minlaydi.

Pedagogik faoliyatda o'qituvchi va o'quvchi munosabatida asosiy vosita talabchanlik va hurmat bo'lishi kerakligi alohida ta'kidlangan. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi o'quvchilarga ijobiy munosabatlarda bo'lsa, o'qishdagi, xulq-atvordagi kamchiliklar osoyishtalik bilan o'zaro ishonch asosida hal etiladi. Bu muayyan mavzu doirasida butun darslik uchun o'ta muhim bo'lgan narsani o'quvchi ajrata olishga o'ziga xos alomati. Shuning uchun bilimlar tizimining mag'zini tashkil qiluvchi o'ta muhim masalalarini darslikda alohida ajratib qo'yimoq joizki, toki o'qituvchi ham, o'quvchi ham asosiy e'tibor-

ni nimaga qaratish muhimligini anglab tursin. Shu o'rinda e'tirof etish joizki, o'zaro hamkorlik o'qituvchi va talabalarining ijtimoiy-psixologik birligini ko'zda tutadi. Dars jarayonida ko'p holatlarda bunga e'tibor berilmaydi. Shunday qilib, o'quv faoliyatining ijtimoiy-psixologik tomoni ta'limni optimallashtirishning amaliy zaxirasi sanaladi. Ba'zan ta'limning yangi metodlarini emas, balki mavjud bo'lgan metodikadan ishonchli ijtimoiy-psixologik ta'minotini izlash kerak bo'ladi. Darslarni o'zlashtira olmaydigan talabalar xulqidagi chekinishlarning psixologik xususiyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, uning salbiy xislatlari, tengdoshlari bilan munosabatda passivligi, xulqining o'zgaruvchanligi nafaqat o'z faoliyatidan, balki talabalar jamoasidagi holatidan hamda u bilan do'stona munosabat yetishmaydigan muloqotdan qoniqmasligi oqibatida paydo bo'ladi. Bu holatlarning barchasi talabning kayfiyatini keskin salbiy tomonga o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, muloqot jarayonida bog'lanishlar turli jihatlar bilan farqlanadi. Buni 1-rasmda kuzatish mumkin.



Hozirgi yoshlarda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqot etikasini shakllantirib borish kelgusida ularning etuk mutaxassislar bo'lib etishishida muhim ahamiyatga egadir. Albatta bu o'rinda pedagogning pedagogik muloqotini yangilashning muhim sharti ekanligini Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev o'z nutq va ma'ruzalarida alohida ta'kidlaydilar, ya'ni bugungi shiddatkor hayot odamlar bilan bemalol muloqot qila oladigan, yaxshini yomondan ajrata oladigan, hayotning pastu - baland ko'chalarida aql zakovat bilan to'g'ri yo'lni topishga qodir bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishni talab qilmoqda.

Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish pedagogik jamoaning hamkorlikdagi asosiy va muhim vazifasidir. O'qituvchi har qancha qobiliyatli, tirishqoq va izlanuvchan bo'lmasin, ko'zlagan maqsadiga bir o'zi erisha olmaydi. Bunga erishish uchun ta'lim muassasasining butun pedagogik jamoasi birgalikda harakat qilishi lozim. O'qituvchining muomala madaniyatiga qarab pedagogik jamoaga baho beriladi. Muomala madaniyatini shakllantirishda o'qituvchilarning o'zaro ijodiy hamkorligi muhimdir. Bunday muhitda pedagoglar, bir-birini yaxshi tushunadi, yutuqlaridan quvonib, ta'lim-tarbiyadagi muammolarni birgalikda hal etiladi. Pedagogik jamoada o'zaro tajriba almashish ham muomala madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Innovastion pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir bo'lajak pedagog-o'qituvchilardan munosib pedagogik muloqot usulini, o'z kasbiy tayyorgarligini, pedagogik mahoratini rivojlantirib borishi talab etiladi.

Tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishni tashkil etishda muloqotning ahamiyati pedagogik muloqot usullari, madaniyatiga, tarbiyachining dilkashligiga alohida talablar qo'yiladi, dilkashlik unda kasbiy tafakkur sifatida namoyon bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchi jamoa, gurux va individual ish olib borish jarayonida odamlar bilan muloqot qila bilishi, muloqot usulini talabalar bilan aniq maqsadni ko'zlagan holda tashkil eta olishi va ularni boshqara bilishi lozim.

Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida zamonaviy kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimining amal qilishiga erishishidir. Bu esa bugungi kun bo'lajak pedagoglaridan ta'lim oluvchilar jamoasida o'zini munosib tuta bilish, pedagogik muloqot usullarini to'g'ri tanlash va ularni amalda to'g'ri foydalanish kabi vazifalarni nazarda tutadi.

**Xulosa.** Muloqotga bo'lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, pedagogik jarayonda muloqot usullari to'g'ri tanlanilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doimo muloqotga bo'lgan ehtiyojlarimizni qondirishimiz lozim. Kimlar bilandir bo'lgan muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, lekin ayrim hollarda esa biz qonikmaslikni his qilamiz. Ularning barchasi kommunikativ jarayonda to'g'ri tanlangan muloqot usullari natijasida yuzaga keladi. Biz kichik yoshdagi bolalarga kattalarga nisbatan qo'llaydigan so'zlarni ishlatmaganimiz singari shaxs muloqotini shakllantirishda, unga nisbatan muloqot usullaridan foydalanishda uning yoshi, jinsi, kasbi, dunyoqarashini hisobga olgan holda ish olib borish lozim.

Demak, muloqot birgalikdagi harakat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan, fikr almashish, bir-iriga ta'sir etish, boshqalarni tushunish, odamlar o'rtasida kontakt o'rnatish va rivojlantirish jarayoni ekan. Buni inobatga olib muloqot usullaridan oqilona foydalanish ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiradi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. // Ped.fanlari dokt. Ilmiy dar uchun diss. T., 2007

2. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat.-T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

3. Leontyev A.A. Pedagogik muloqot. M.; Nalchik, 1996 y.

4. Melibruda E.Y. "Muloqotni yaxshilash uchun psixologik imkoniyatlar

Internet ma'lumotlari:

[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

#### **TA'LIM JARAYONIDA MULOQOT KO'NIKALARINING TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI**

Ilyasova M.M.- Ilmiy rahbar

Gullola A.A. - Izlanuvchi

*Mazkur maqolada pedagogik muloqotning o'ziga xos jihatlariga e'tibor qaratar ekanmiz, shaxslararo muloqotning boshqa shakllariga nisbatan pedagogning o'quvchilar bilan muloqoti va hamkorligidagi o'ziga xoslik o'quvchilarning rivojlanishlariga bundan tashqari, pedagoglarning talabalar bilan o'quv-biluv jarayonida muloqot madaniyatini tashkil etishning zamonaviy uslublarini tatbiq etish to'g'risida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** Muloqot, pedagogik muloqot, zamonaviy muloqot usullari, muloqot etikasi, ta'lim-tarbiya, kommunikativ qobiliyat, ta'lim jarayoni.